Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
FILOLOGIYA

MUHIB (NURILLOH ZAYNDDINOV)NING "HAQNI AYTGAN HAQPARVAR TILIM" SHE'RINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Zulxumor Musaboyeva*
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ zulxumorgmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada namanganlik shoir Muhib (Nurilloh Zaynddinov)ning ona tili mavzusidagi "Haqni aytgan haqparvar tilim" she'rining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

ona tili, band, misra, ritorik murojaat, anafora, tashbeh, sifatlash, olmosh, egalik shakli.

DOI: 10.5281/zenodo.21743845

KIRISH

Namanganlik shoir Muhib (Nurilloh Zaynddinov)ning 8 band 40 misradan iborat "Haqni aytgan haqparvar tilim" she'ri ham ona tili mavzusidagi eng yaxshi ash'orlardan biridir. [1:120-121]

She'r ritorik uslubda, ya'ni lirik qahramon (shoir)ning ona tiliga murojaati tarzida voqelangan. Bu har bir bandda egalik shaklidagi *tilim* lug'aviy birligi vositasida ifodalangan:

Ona tilim, muzaffar tilim,
Ona tilim, muattar tilim! [1:120-121]

Aynan 8 bandlarning barchasida qisman, misra o'rtasida va ko'proq, oxirida 20 o'rinda *tilim* murojaat shaklining muayyan sifatlashlar bilan takrori she'riy g'oya va fikrning takidli ifodalash barobarida band va misralar aro zanjirsimon fikriy, mantiqiy bog'liqlikni ta'minlagan.

Muallif o'xshatish sa'natidan ham mahurat bilan foydalangan. U ona tilini II shaxs *sen* olmoshi vositasida *Qur'on so'zining ma'nosi, Payg'ambarning duosi, oshiq dillar ziyosiga* tashbehlash bilan uning ilohiyligini, mo'zijakorligini badiiy ifoda etishga erishadi:

Qur'on so'zining ma'nosi ***sensan,***
Payg'ambarning duosi ***sensan,***
Oshiq dillar ziyosi ***sensan,***
Haqni aytgan haqparvar tilim,
Olov qalbli samandar tilim. [1:120]

Albatta, sensan olmoshining aynan uch o'rinda takrori ham tashbehni ta'kidli ifodasin ta'minlagan.

Shoir she'rning so'nggi bandida yana sen kishilik olmoshi va egalik shakllari vositasida ona tilini insonga xos oliy qadriyatlar va yorga xos go'zal xislatlarga tashbehlaydi:

Sen – ***sharafim, nomusim, orim,***
Xushjamolim*, ey* ***xushguftorim,***
Sen – ***boyligim,*** *sen –* ***iftixorim,***
Zavol ko'rma, to mahshar tilim,
Lobar tilim, jilvagar tilim! [1:120]

She’riy bandda o‘xshatish birligining aynan bir xil – egalik shaklida qo‘llanishi she’riy ritmni, musiqiylik va izchilik ham uzviylikni ta’minlagan.

Shoir sodda gap anaporasi vositasida lirik qahramon timsolida ona tilining mavjudligi insonning ko‘nglini uyg‘oqligini, ovozi jarangdorligini, ruhi, kayfiyati shodligini ta’kid bilan ifodalaydi:

Sen borsanki, ko‘nglim uyg‘oq,
Sen borsanki, ovozim yangroq,
Sen borsanki, ruhim, kayfiyatim chog‘.
Ona tilim, muzaffar tilim,
Ona tilim, muattar tilim! [1:120]

She’riy banddagi *uyg‘oq, yangroq, chog‘* insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi uyadosh so‘zlar qofiyadoshligi va ohangdoshligi musiqiylik, jozibadorlikni ta’minlagan.

Shoirning mahotrati shundaki, she’rni ona tiliga xos sifatlashlar bilan sayqallagan. She’rning har bir bandi o‘ziga xos sifatlashlar bilan tugallangan: *muzaffar tilim, muattar tilim, erkparvar tilim, elparvar tilim, dur-gavhar tilim, mushk-anbar tilim, haqparvar tilim, samandar tilim, dilovar tilim, ezgulikka safarbar tilim, lobar tilim, jilvagar tilim, go‘zal tilim, jilvagar tilim, hurpaykar tilim, baxt-iqbolga muyassar tilim* kabi yigirmaga yaqin sifalashlar.

Mazkur sifatlashlar ona tilining barcha belgi-xususiyatlarini darajalash asosida ifoda etadi.

Yasaviyning go‘zal bayoti,
Shoh Mashrabning mungli faryodi,
Millat ruhin sinmas qanoti,
Erkni kuylar erkparvar tilim,
Elni siylar elparvar tilim! [1:120]

She’rning qa’tiy ritorik uslubda shakl uyg‘unligida sifatlashlashlar bilan sayqallangan hikmatomuz bashorat bilan yakunlanishi ham she’r g‘oyasini balan nuqtalarda xulosalanganligini ko‘rsatadi:

Sen o‘lmaysan, mangu tiriksan,
Millatimga aziz, suyuksan.
Azal, abad borsan buyuksan,
Go‘zal tilim, hurparvar tilim,
Baxt-iqbolga muyassar tilim! [1:120]

Shoir o‘zbek tilini rivoji va takomilida muhim o‘rin tutuvchi shoir va adiblar *Yassaviy, Mashrab, Navoiy, Bobur, Qodiriy* nomlarini talmeh san’atida qo‘llaydi va yana ona tilini tavsiflovchi tashbehlaydi, sifatlaydi:

Yassaviyning go‘zal bayoti,
Shoh Mashrabning mungli faryodi,
Millat ruhin sinmas qanoti,
Erkni kuylar erkparvar tilim,
Elni siylar elparvar tilim!
Navoiyning nafis navosi,
Shoh Boburning yurak nidosi,
Qodiriyning aql-u zakosi.
Ona tilim, dur-gavhar tilim,
Dilga payvand, mushk-anbar tilim! [1:120]

Shoir she’rda so‘zlar qofiyadoshligini ta’minlashda ham yuksak did va mahorat yondashgan. Mazkur baytlarda shoirlar dunyosi, ruhiyatiga xos *bayot, faryod, qanot, navo, nido, zako* so‘zlarining qofiya sifatida qo‘llanishi talmeh mazmunini to‘ldirish barobarida ta’sirchanlik va jozibadorlikni yorqin ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Muhib (Nurilloh Zaynddinov). Haqni aytgan haqparvar tilim //Ona tili madhi. Hikmatli so‘zlar, she’rlar va maqollar majmui / Tuzuvchi va to‘plovchi: N.Uluqov. – Toshkent: Arjumand media, 2022. – 164 b.